

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN O‘QUVCHILARGA NISBATAN TOLERANTLIK (BAG‘RIKENGLIK) MUHITINI YARATISHNING INNOVATSION METODIKASI

Boyzaqova Umida Ashirali qizi

University of Business and Science,
Pedagogika va psixologiya kafedrası pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18974205>

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tolerantlik (bag‘rikenglik) muhitini shakllantirishning innovatsion metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda inklyuziv ta‘lim jarayonida pedagogik yondashuvlarning ahamiyati, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni sog‘lomlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning ta‘lim jarayoniga to‘laqonli integratsiyasini ta‘minlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda tarbiyaviy ishlarning samaradorligi asoslab beriladi. Maqolada tolerantlik muhitini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta‘lim, tolerantlik, bag‘rikenglik muhiti, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar, innovatsion metodika, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy moslashuv, umumta‘lim maktabi.

Аннотация: В данной статье освещается инновационная методика формирования среды толерантности (терпимости) в отношении учащихся с инвалидностью в общеобразовательных школах. В исследовании анализируется значение педагогических подходов в процессе инклюзивного образования, а также вопросы оздоровления социально-психологических отношений между учителями и учащимися. Кроме того, обосновывается эффективность современных педагогических технологий, интерактивных методов и воспитательной работы в обеспечении полноценной интеграции учащихся с инвалидностью в образовательный процесс. В статье выдвигаются методические рекомендации, способствующие развитию среды толерантности.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, толерантность, среда терпимости, учащиеся с инвалидностью, инновационная методика, педагогические технологии, социальная адаптация, общеобразовательная школа.

Abstract: This article highlights the innovative methodology for forming an environment of tolerance in general secondary schools towards students with disabilities. The research analyzes the importance of pedagogical approaches in the process of inclusive education and the issues of improving socio-psychological relationships between teachers and students. Furthermore, the effectiveness of modern pedagogical technologies, interactive methods, and educational activities in ensuring the full integration of students with disabilities into the educational process is substantiated. The article puts forward methodological recommendations aimed at developing an environment of tolerance.

Keywords: Inclusive education, tolerance, environment of tolerance, students with disabilities, innovative methodology, pedagogical technologies, social adaptation, secondary school.

Zamonaviy ta‘lim tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish va uni samarali tashkil etish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning ta‘lim olish huquqlarini ta‘minlash faqatgina o‘quv dasturlari va moddiy-texnik sharoitlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning psixologik qulayligi va ijtimoiy himoyasini ham talab etadi. Shu jihatdan, ta‘lim muassasalarida tolerantlik (bag‘rikenglik) muhitini yaratish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan befarqlik, stereotiplar va kamsitish holatlari ularning shaxsiy rivojlanishi, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi hamda jamiyatga moslashuv jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday holatlarning oldini olishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda tarbiyaviy ishlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Shu sababli, mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tolerantlik muhitini shakllantirishning innovatsion metodikasi ishlab chiqilib, uning pedagogik samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta’limni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida inklyuzivlik va tolerantlik masalalari dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biriga aylandi. Xususan, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan bag‘rikeng muhitni shakllantirish umumiy o‘rta ta’lim maktablarining muhim vazifasi sifatida e’tirof etilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan UNESCO va UNICEF tadqiqotlarida inklyuziv ta’lim tolerantlik muhitini yaratishning asosiy mexanizmi sifatida ko‘riladi. UNESCO ta’rifiga ko‘ra, inklyuziv ta’lim — bu barcha o‘quvchilarning, jismoniy yoki psixologik holatidan qat’i nazar, teng huquqli va sifatli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlovchi jarayondir[1]. Ushbu yondashuv nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan ijtimoiy to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Mahalliy va xorijiy pedagog-olimlar (Ainscow, Booth, Florian) tadqiqotlarida tolerant muhitni shakllantirishda maktab madaniyati, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi va innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni alohida ta’kidlanadi[2]. Xususan, hamkorlikka asoslangan ta’lim, differensial yondashuv, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) metodlari bag‘rikenglikni rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholanadi.

O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni ijtimoiy moslashtirish va ularga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish masalalari yoritilgan[3]. Ushbu ishlarda tolerantlik muhitini yaratishda o‘qituvchi, sinfdoshlar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tolerantlik muhitini yaratish innovatsion pedagogik yondashuvlar, inklyuziv siyosat va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan chambarchas bog‘liq.

Mazkur tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tolerantlik muhitini yaratishning innovatsion jihatlarini aniqlash maqsad qilib olindi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuv asosida ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi. Xususan, Nazariy tahlil metodi – pedagogik, psixologik va ijtimoiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali tolerantlik va inklyuziv ta’lim tushunchalarining mazmunini aniqlash; Kuzatish metodi – umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi dars jarayonlari va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish; So‘rovnoma va suhbat metodi – o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarning nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatini aniqlash; Pedagogik tajriba-sinov metodi – innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish orqali tolerantlik muhitining o‘zgarishini baholash; Statistik tahlil metodi – olingan natijalarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan bag‘rikenglikni oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tolerantlik (bag‘rikenglik) muhitini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatdi. Kuzatish, so‘rovnoma va pedagogik tajriba-sinov natijalari asosida bir qator ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tajriba-sinov ishlari o‘tkazilgan maktablarda o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim va tolerantlikka bo‘lgan munosabati sezilarli darajada ijobiy tomonga o‘zgargan. Xususan, respondentlarning aksariyati nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda innovatsion pedagogik texnologiyalar (hamkorlikda o‘qitish, differensial topshiriqlar, raqamli resurslar) ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishini ta’kidladi.

Kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion yondashuvlar joriy etilgan sinflarda sog‘lom va nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar yaxshilangan. O‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, yordam ko‘rsatish va empatiya kabi ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlangan. Bu holat Ainscow va Booth tomonidan ta’kidlangan inklyuziv maktab madaniyatining shakllanishi bilan mos keladi[4].

Pedagogik tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, tolerantlik muhitini yaratishda faqatgina jismoniy sharoitlar emas, balki psixologik-pedagogik muhit ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilarning ijobiy munosabati, sinfda qo‘llab-quvvatlovchi muhit va ota-onalar bilan hamkorlik nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirdi hamda ularning darslardagi faolligini kuchaytirdi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Olingan natijalar UNESCO tomonidan ilgari surilgan inklyuziv ta’lim tamoyillari bilan hamohang bo‘lib, barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkinligini tasdiqlaydi[5]. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion yondashuvlarni samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va maktabda ijobiy tolerant madaniyatni shakllantirish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tolerantlik muhitini yaratish innovatsion pedagogik texnologiyalar va inklyuziv yondashuvlar orqali samarali amalga oshirilishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tolerantlik (bag‘rikenglik) muhitini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish zarur. Bunda malaka oshirish kurslariga tolerantlik madaniyati, inklyuziv pedagogika, differensial va individual yondashuvlarga oid maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiq. Bu o‘qituvchilarning nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, maktablarda ijobiy psixologik va ijtimoiy muhitni shakllantirishga yo‘naltirilgan innovatsion dasturlarni joriy etish tavsiya etiladi. Jumladan, ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL), hamkorlikka asoslangan o‘qitish, “tengdosh – tengdoshga yordam” (peer support) modellari o‘quvchilar o‘rtasida empatiya va o‘zaro hurmatni rivojlantiradi.

Uchinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar uchun treninglar, davra suhbatlari va maslahat mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va tolerantlik madaniyatini oiladan boshlab rivojlantirish mumkin.

To‘rtinchidan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim jarayoniga raqamli va assistiv texnologiyalarni keng joriy etish tavsiya etiladi. Masalan, moslashtirilgan elektron resurslar, audio va vizual materiallar, interaktiv platformalar nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tolerantlik (bag‘rikenglik) muhitini yaratishning innovatsion jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va ijtimoiy adabiyotlar tahlil qilinib, inklyuziv ta’lim va tolerantlik tushunchalarining nazariy asoslari yoritildi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan ijobiy va bag‘rikeng muhitni shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, hamkorlikka asoslangan ta’lim, differensial yondashuv, raqamli va assistiv texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish bilan birga, sog‘lom va nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat va empatiya munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tolerantlik muhitini yaratish innovatsion pedagogik texnologiyalar va inklyuziv yondashuvlar asosida samarali amalga oshirilishini tasdiqladi. Mazkur ishda ilgari surilgan xulosa, taklif va tavsiyalar ta’lim amaliyotida qo‘llanilganda inklyuziv ta’lim sifatini oshirishga hamda jamiyatda bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Inclusion. Paris: UNESCO, 2005.
2. Ainscow M., Booth T. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: CSIE, 2011.
3. Xodjayev B., Karimova G. Inklyuziv ta’lim asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
4. Florian L. Inclusive Pedagogy: A Transformative Approach to Individual Differences. London: Routledge, 2015.
5. Ainscow M., Booth T. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: CSIE, 2011.
6. Boyzaqova Umida, Mamatqulova Dilafruz, Talabalarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda ijtimoiy-ma’naviy muhitning o‘rni/ UBS Ilmiy axborotnomasi, 2026. - 622-625b.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

7. Boyzaqova Umida Ashirali qizi, Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni takomillashtirishning xorijiy tajribalari/ Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2025. - 703-707.